

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI BOSHQARUVINING
QARORI

**BANK XIZMATLARI ISTE'MOLCHILARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI AMALGA
OSHIRISHDA TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIGA QO'YILADIGAN MINIMAL
TALABLAR TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 2-iyulda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 3030]**

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdag'i PQ-3620-soni "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Markaziy bank Boshqaruvi qaror qiladi:

1. Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

Markaziy bank raisi M. NURMURATOV

Toshkent sh.,
2018-yil 28-aprel,
16/18-son

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/18-sonli qaroriga
ILOVA

**Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat
banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida**

NIZOM

Oldingi tahrirga qarang.

Mazkur Nizom bank xizmatlari iste'molchilarining huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadida bank xizmatlari iste'molchilari (bundan buyon matnda iste'molchilar deb yuritiladi) bilan munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining (bundan buyon matnda bank deb yuritiladi) faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablarni belgilaydi.

(muqaddima O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

1-bob. Umumiyy qoidalar

1. Mazkur Nizomda quyidagi **asosiy tushunchalardan** foydalaniladi:

iste'molchilar — bank xizmatidan foydalanish istagida bankka murojaat qilgan, ushbu xizmatdan foydalanayotgan yoki oldin foydalangan jismoniy yoki yuridik shaxslar;

Oldingi tahrirga qarang.

shaxsiy kabinet — bankning rasmiy veb-saytida, internet-banking tizimida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilgan, iste'molchiga bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan axborot olish, shuningdek Internet tarmog'idan foydalangan holda xabarlar almashish orqali bank bilan **o'zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi axborot resursi**;

(1-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

murojaat — iste'molchi (yoki uning vakili) tomonidan og'zaki, yozma yoki elektron shaklda bankka yuborilgan **bank xizmatlarini ko'rsatishga taalluqli ariza, shikoyat yoki taklif.**

2. Iste'molchilar bank va bank xizmatlarini erkin tanlash huquqiga ega.

Bank tomonidan bir xizmatning iste'molchiga **qo'shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan** ko'rsatilishi taqiqlanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Bank xizmatlari bank va iste'molchi o'rtasida tuzilgan **shartnoma**, shu jumladan **ommaviy oferta tarzidagi shartnoma** asosida ko'rsatiladi.

(3-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Shartnomalarning matni iste'molchilar tushunishi uchun aniq va sodda tarzda bayon etilishi va kompyuter vositasida bosib chiqarishda "Times New Roman" 12 o'lchamli shriftdan kam bo'limgan yoki shunga o'xhash shriftni qo'llagan holda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanimishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Shartnomalarning matni davlat tilida tuziladi. Iste'molchi va bankning o'zaro kelishuviga muvofiq shartnoma matni boshqa tilda ham tuzilishi mumkin.

(3-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

2-bob. Iste'molchiga axborot berishning minimal talablari

1-§. Ma'lumotlar berishning umumiyligi minimal talablari

4. Bank tomonidan ko'rsatiladigan barcha xizmatlar to'g'risida ma'lumotlar iste'molchiga oshkor etilishi lozim.

Xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar tijorat yoki bank sirini o'z ichiga olmasligi zarur.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Bank xizmatlarini taqdim etish shartlari, ushbu shartlarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi, shuningdek bankning axborot stendlarida doimiy ravishda joylashtirib borilishi kerak.

Bunda, bank xizmatlarini taqdim etish shartlarining o'zgarishi haqidagi ma'lumot kuchga kirishidan **kamida o'n kun oldin**, valyuta ayirboshlash kurslarining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumot zudlik bilan e'lon qilinishi lozim.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi)

6. Iste'molchilarga bank xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar shartnomalar tuzilishidan avval bepul taqdim etilishi va tanishtirilishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

6¹. Iste'molchi bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani (kredit, depozit, bank hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish, lizing, bank kartalari va boshqalar bo'yicha) imzo qo'ymasdan oldin tanishib chiqishi uchun o'zi bilan olib ketishga haqli.

Bank iste'molchini ushbu huquqqa ega ekanligi to'g'risida xabardor qilishi lozim.

(6¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Bank xizmatlari masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali ko'rsatilganda, bank iste'molchiga shartnomaga tuzilishidan oldin mazkur tizim orqali shartnomaga shartlari bilan tanishib chiqish va undan nusxa olish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

(6¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

7. Bank o'zining moliyaviy xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga davlat tilida yetkazishi lozim. Bankning moliyaviy xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qo'shimcha ravishda boshqa tillarda ham taqdim etilishi mumkin.

Bank xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning matni lo'nda, oddiy va ravon tilda bayon etilishi kerak.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

8. Iste'molchilarga bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar **to'liq va to'g'ri tushuntirilishi lozim**.

Bank xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qog'oz shaklda berilganda "Times New Roman" 12 o'lchamli shriftdan kam bo'limgan yoki shunga o'xshash shriftni qo'llagan holda Misrosoft Word matn redaktoridan foydalanish kerak.

9. Bank tomonidan kredit bo'yicha xizmat ko'rsatish davrida iste'molchining og'zaki yoki yozma so'rovi olingan kundan e'tiboran **bir ish kuni ichida** unga quyidagi axborotlar yozma shaklda oyda **bir marta bepul** taqdim etiladi:

kreditlash limiti;

kredit bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi;

asosiy summa bo'yicha qarz qoldig'i;

navbatdagi to'lovlarning miqdori, tarkibi va muddatları (to'lovlardan jadvali);

kreditni muddatidan oldin qisman yoki to'liq so'ndirish istagi bildirilgan taqdirda to'lash lozim bo'lgan summalar miqdori;

muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi;

kelib tushayotgan pul mablag'lari kredit bo'yicha qarzni so'ndirishga yo'naltirilishi haqida axborotlar.

10. Bank iste'molchining talabiga ko'ra quyidagi hujjatlarning bank tomonidan tasdiqlangan nuxxalarini bepul (bitta bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha bir marta) berishga majbur:

bank va iste'molchi tomonidan imzolangan bank xizmatini ko'rsatish haqidagi shartnomasini;

Oldingi tahrirga qarang.

iste'molchi tomonidan berilgan ariza (agar qonunchilik hujjatlariga muvofiq bunday arizaning rasmiylashtirilishi majburiy bo'lsa yoki bankning ichki qoidalariga asosan bank xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani tuzish chog'ida bunday arizani rasmiylashtirilishi shart bo'lganda);

(10-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldaggi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

iste'molchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjat (order, to'lov topshiriqnomasi, elektron to'lov vositasiga pul mablag'lari o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotnomasi);

kredit shartnomalari bo'yicha iste'molchi tomonidan majburiyatları to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat (ma'lumotnomasi).

Bank iste'molchining talabiga ko'ra mazkur bandda nazarda tutilgan hujjatlarni ularni tayyorlash xaratjalardan oshmaydigan haq evaziga cheklanmagan tarzda taqdim etishi mumkin. Bunday hujjatlarni taqdim etishning imkoniyatini mavjud bo'limgan taqdirda, bu haqida bank tomonidan iste'molchiga asosli ravishda yozma xabar berilishi kerak.

11. Bank iste'molchilarga ma'lumot berish uchun bank xizmatini ko'rsatish shartnomasini tuzish chog'ida ular bilan bog'lanish aloqa vositalarini kelishib olishi va ushbu aloqa vositalari orqali bog'lanish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Iste'molchining tegishli so'rovi bankda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan **boshlab besh ish kuni ichida** bank xizmatini ko'rsatish haqidagi shartnomasi, iste'molchi tomonidan berilgan ariza va iste'molchiga kredit berilganligini tasdiqlovchi hujjat hamda bir ish kuni ichida kredit shartnomalari bo'yicha iste'molchi tomonidan majburiyatlarini to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etiladi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

12¹. Bank iste'molchiga yoki uning vakolatli vakiliga bank xizmatini ko'rsatish to'g'risida **shartnoma imzolangan kunda shartnomaning bitta asl nusxasini taqdim etishi kerak.**

(12¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Agarda shartnoma masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali tuzilganda, bank iste'molchiga ushbu shartnoma tuzilgan kunda, mazkur tizimlar orqali shartnomadan foydalanish va undan nusxa olish imkoniyatini yaratishi shart.

(12¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan xatboshi bilan to'dirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

2-\$. Bankning rasmiy veb-saytida axborot berish xususiyatlari

13. Bank o'zining rasmiy veb-saytiga ega bo'lishi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

Rasmiy veb-saytga joylashtirilayotgan **axborotlarning sanasi ko'rsatilishi kerak.**

(13-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan xatboshi bilan to'dirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi)

14. Bankning rasmiy veb-saytida saytning tuzilishini bayon etuvchi, ushbu tuzilmadagi rasmiy veb-saytning har bir sahifasi joylashgan joyni qulay shaklda aniqlash imkonini beruvchi bo'lim bo'lishi kerak.

15. Bankning rasmiy veb-sayti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2014-yil 2-iyuldaggi 176-son qarori bilan tasdiqlangan** Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ veb-saytlariga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomga muvofiq bo'lishi kerak.

16. Bankning rasmiy veb-saytidagi axborotdan foydalanishda:

iste'molchilar zarur ma'lumotlardan xohlagan paytida tanishib chiqish va undan foydalanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Ma'lumot bilan tanishganlik yoki undan boshqacha tarzda foydalanganlik uchun haq undirilmasligi hamda boshqa cheklolar qo'yilmasligi lozim;

iste'molchi ma'lumot bilan bepul va keng tarqalgan dasturiy ta'minot yordamida foydalanish imkoniga ega bo'lishi lozim;

axborot shifrlangan yoki boshqa vositalar orqali himoyalangan bo'lmasligi kerak;

bank o'z rasmiy veb-saytida joylashtirilgan axborotdan (iste'molchining shaxsiy kabinetida joylashtirilgan axborotdan tashqari) foydalanish uchun iste'molchidan ro'yxatdan o'tish yoki shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etishini, shuningdek u bilan turli xil bitimlar tuzishni talab qilishga haqli emas.

17. Bank rasmiy veb-saytining mazkur bank va ko'rsatilayotgan bank xizmatlari shartlari to'g'risida axborotlarni o'z ichiga olgan bo'limiga veb-saytning bosh sahifasidan giperhavolalar orqali bir o'tishda kirish uchun imkoni yaratilgan bo'lishi kerak.

Oldingi tahrirga qarang.

18. Bank o'zining rasmiy veb-saytida, internet-banking tizimida va/yoki mobil ilovasida iste'molchi uchun shaxsiy kabinet yaratish va undan foydalanish imkoniyatini **ta'minlab berishi lozim**.

Bank iste'molchiga uning shaxsiy kabinetida:

kredit shartnomasi bo'yicha iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma va unga kiritilgan o'zgartirishlar hamda mazkur Nizomning 9-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlardan;

omonat (depozit) shartnomasi bo'yicha iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma va unga kiritilgan o'zgartirishlar hamda omonat qoldig'i, omonat bo'yicha kirim-chiqim operatsiyalariga doir ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlab berishi shart.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

18¹. Banklar o'zlarining rasmiy veb-saytlarida jismoniy shaxslarga mo'ljallangan kreditlarning (mikroqarzlarning) to'liq qiymatini mustaqil hisoblab chiqish imkoniyatini yaratib berishlari lozim.

(18¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdaggi 20/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

3-§. Bank faoliyatga oid reklama tusidagi axborotlar berish

19. Reklama tusidagi axborot iste'molchining ishonchini suiiste'mol qilmaydigan tarzda va (yoki) iste'molchining tajribasi va bilimi yetishmaslidan foydalanishni ko'zlamagan holda taqdim etilishi lozim.

20. Reklama tusidagi axborot bevosita yoki bilvosita, ikki xil ma'noda qo'llash yoki oshirib ko'rsatish vositasida iste'molchini chalg'itishi, xususan bank xizmatining shartlari yuzasidan iste'molchining tanloviga ta'sir o'tkazmasligi kerak.

21. Reklama beruvchi bank Internet tarmog'ida kontekstli reklamani joylashtirishda boshqa kredit tashkilotining firma nomi va (yoki) tovar belgisidan kalit so'zlar sifatida foydalanishi mumkin emas.

22. Reklama beruvchi bank iste'molchiga noto'g'ri axborot taqdim etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o'z rasmiy veb-saytini boshqa kredit tashkilotining ilgari e'lon qilingan rasmiy veb-saytiga o'xshatib niqoblamasligi kerak.

4-§. Iste'molchiga beriladigan axborotning minimal hajmi

23. Bankning **axborot stendlarida** va **rasmiy veb-saytida** quyidagi axborotlar joylashtirilishi shart:

bankning to'liq va qisqartirilgan nomi, manzili, filiallari manzillari, ish vaqt, bog'lanish uchun aloqa telefonlari, rasmiy veb-sayti va elektron pochta manzili;

mazkur Nizomning matni;

Oldingi tahrirga qarang.

iste'molchilarga bank xizmatlarini ko'rsatish tartibi, shartlari va qiymati, shu jumladan bank xizmati bo'yicha namunaviy shartnomalar matni (faqat rasmiy veb-saytda);

(23-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

bank operatsiyalari bo'yicha tariflar, foiz stavkalari va vositachilik haqlari to'g'risida;

Oldingi tahrirga qarang.

chet el valyutalarini sotish va sotib olish kurslari, chet el valyutalarini almashtirish kurslari, shuningdek valyuta ayirboshlash operatsiyalari uchun undiriladigan vositachilik haqi miqdorlari (agarda mavjud bo'lsa);

(23-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan oltinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

iste'molchilar murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi, shu jumladan murojaat qilish usullari va ular yo'llanadigan manzillar to'g'risida;

iste'molchining huquqlarini himoya qilish usullari, shu jumladan nizoni sudgacha hal etish imkoniyati va usullari haqida.

24. Bank iste'molchini taraflarning huquqlari, majburiyatlarini va javobgarligi haqida xabardor qilishi, shuningdek iste'molchining talabiga ko'ra mazkur Nizomning 23-bandida ko'rsatilgan axborotni taqdim etishi shart.

Taqdim etilayotgan xizmatlarning shartlari va qiymati haqidagi axborotni berishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

24¹. Bank omonatchilar uchun qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan chekloylar o'rnatishga haqli emas.

(24¹-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldaggi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

24². Bank omonati (depoziti) shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim. Bunda shartnoma masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlaridan foydalanilgan holda tuzilganda, uni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ofertani akseptlash orqali ham rasmiylashtirish mumkin.

(24²-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldaggi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

24³. Bank va omonatchilar o'rtasida bank omonati (depoziti) shartnomasi, omonat summasi bank kassasiga qabul qilingan yoki omonat hisobvarag'iga tegishli mablag' naqd pulsiz shaklda kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

24⁴. Bank omonatchiga uning pul mablag'lari omonatga qabul qilinganligi to'g'risidagi tegishli hujjatni yozma shaklda yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron tarzda tasdiqlab berishi lozim.

24⁵. Fuqarolarning bankdagi omonatlari O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq kafolatlangan bo'lsa, bank omonati (depoziti) shartnomasida bu haqda ma'lumot aks ettirilishi shart.

(24² — 24⁵-bandlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

25. Bank omonati shartnomasi shartlariga omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bank tomonidan bir tomonlama kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

26. Bank omonati (depozit) shartnomasi tuzilgunga qadar bank iste'molchiga og'zaki tarzda quyidagi axborotni taqdim etadi:

omonat (depozit) turi (talab qilib olguncha, muddatli, jamg'arma);

omonat (depozit) muddati (mavjud bo'lganda);

omonatning (depozitning) eng kam summasi;

mukofot stavkalari;

qo'shimcha bitim tuzmagan holda omonat (depozit) muddatini uzaytirish shartlari;

omonatni (depozitni) to'ldirish imkoniyati;

omonatni (depozitni) to'liq yoki qisman muddatidan oldin qaytarib olish shartlari;

foiz stavkalari;

omonat (depozit) bo'yicha asosiy summa va foizli daromadlarni to'lab berish tartibi;

omonatga (depozitga) **qo'shimcha mablag' kiritish** imkoniyati;

omonatga (depozitga) qo'yish maqsadida bank kassasiga naqd pullarni topshirish yoki bank hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishdan avval bank bilan depozit shartnomasini rasmiylashtirish shartligi;

bank omonati (depoziti) shartnomasi bo'yicha nazarda tutilgan bank va iste'molchining huquq va majburiyatları, ularning javobgarligi to'g'risida.

Bank omonati (depozit) shartnomasi masofaviy xizmat ko'rsatish tizimi orqali tuzilganda, bank mazkur tizim orqali iste'molchiga shartnoma tuzilishidan oldin mazkur bandda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

(26-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

27. Kredit shartnomasi tuzilgunga qadar bank iste'molchiga quyidagi axborotni taqdim etadi:

kredit olish uchun qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar;

kreditning turi;

kreditning eng ko'p miqdori va valyutasi, shu jumladan chet el valyutasi bilan bog'liq ehtimoliy tavakkalchiliklari (chet el valyutasi bo'yicha kurslar o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotish bilan bog'liq tavakkalchilik) haqida ogohlantiradi;

kreditdan foydalanish muddati;

foiz stavkasining yillik nominal qiymati, o'zgaruvchan foiz stavkalari qo'llanilganda esa ularni aniqlash tartibi, shuningdek iste'molchi-jismoniy shaxslar murojaat qilgan sanadagi kreditning to'liq qiymati. Bunda jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning (mikroqarzlarning) to'liq qiymatini hisoblash mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq tartibda amalga oshiriladi;

kreditdan foydalanganlik uchun foizlar hisoblash boshlanadigan sana yoki uni aniqlash tartibi;

vositachilik haqlari, tariflar va kredit olish hamda unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan boshqa to'lovlarning batafsил ro'yxati va miqdorlari;

kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda iste'molchining javobgarligi va tavakkalchiliklari;

kredit berish, shu jumladan masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimlari orqali kredit berish usullari;

qarz oluvchining kreditni qaytarish, kredit bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lash chog'idagi to'lovlarning davriyili;

garovga qo'yuvchi, kafil (kafolat beruvchi) va kredit shartnomasining tarafi hisoblangan boshqa shaxsning javobgarligi;

bank va iste'molchining huquqlari va majburiyatları, shu jumladan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni undirish jarayonida iste'molchining huquqlari, shuningdek bank xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida ko'zda tutilgan taraflarning javobgarligi haqidagi ma'lumotlar;

iste'molchi tomonidan kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish, kreditni taqdim etish va undan foydalanish muddatlari;

kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq ro'yxati;

kredit berish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishini ta'minlash turlari;

kredit ta'minotiga qabul qilinadigan garov turlari (agar garov talab qilinsa);

kreditni muddatidan oldin so'ndirish tartibi;

kredit shartlarini o'zgartirish tartibi, shu jumladan qarzdorlikni qaytarish muddatlarini qayta ko'rib chiqish va undiruvni garov mulkiga qaratish tartib-taomili.

(27-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

27¹. Bank oldidagi **majburiyatlar ta'minoti sifatida** mulkini garovga qo'yayotgan yoki kafil bo'layotgan uchinchi shaxslarga kelgusida yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan xatarlar, xususan qarz oluvchi tomonidan kredit va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, kredit bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorliklarni qoplash uchun qonunchilikka va shartnomaga muvofiq uchinchi shaxsning garovdagi mol-mulkiga yoxud kafilning mol-mulkiga undiruv solidar yoki subsidiar javobgarligi tartibida qaratilishi mumkinligini tushuntirishi lozim.

(27¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

28. Bank iste'molchini quyidagi omillarni hisobga olgan holda o'z moliyaviy ahvolini tahlil qilishi zarurligi to'g'risida ogohlantirishi lozim:

iste'molchining qarz yuki joriy moliyaviy ahvoliga mos kelishi;

bank xizmatini ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishi uchun taxminan qaysi muddatlarda va qancha miqdorda pul mablag'lari kelib tushishi kutilayotganligi (masalan, jismoniy shaxslar uchun — ish haqi to'lanishi, boshqa daromadlar olishi davriyiligi);

kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan yengib bo'lmas kuch ta'siridagi vaziyatlar va boshqa holatlar yuz berishi ehtimoli (shu jumladan jismoniy shaxslar uchun — ishini yo'qotish, o'ziga bog'liq bo'lмагan sabablarga ko'ra ish haqi va boshqa turdag'i daromadlarni kechikib olishi, ishga joylashishi, sog'lig'ining yomonlashganligi natijasida daromadlarining tushib ketishi).

29. Bank iste'molchi kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi bilan bog'liq tavakkalchiliklar to'g'risida, shu jumladan iste'molchiga nisbatan majburiyatlarni buzganligi uchun qo'llaniladigan neustoyka (jarima, penya) va ularning natijasida iste'molchining xarajatlari summasi oshishi ehtimoli to'g'risida axborot beradi.

30. Bank so'roviga javoban iste'molchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar — tuzilayotgan kredit shartnomasining shartlariga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida iste'molchi ogohlantirilishi zarur.

Oldingi tahririga qarang.

30¹. Iste'molchi-jismoniy shaxs kredit olish yoki omonat hisobvarag'i ochish uchun bankka murojaat qilganida (bank binosiga iste'molchi tashrif buyurganda) bank mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq kreditning hamda 3-ilovasiga muvofiq muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot varaqasini (bundan buyon matnda Axborot varaqasi deb yuritiladi) iste'molchi — jismoniy shaxs bilan birgalikda to'ldiradi va iste'molchi — jismoniy shaxsga taqdim etadi.

Bank o'zining rasmiy veb-saytida iste'molchilarga taqdim etilayotgan omonat va kredit mahsulotlari bo'yicha Axborot varaqasining interaktiv shaklini mustaqil ravishda to'ldirish va undan nusxa olish imkoniyatini yaratib berishi lozim.

Axborot varaqasi iste'molchi — jismoniy shaxsga bepul tarzda taqdim etiladi va kredit olish yoki omonat hisobvarag'i ochish uchun buyurtmanoma hisoblanmaydi.

Ushbu bandning talablari miqroqarz munosabatlariiga ham qo'llanadi.

(30¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdagi 20/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

3-bob. Bankning iste'molchi bilan munosabatlarni tashkil etishi

1-§. Bank tomonidan iste'molchi bilan munosabatlarni amalga oshirishning asosiy qoidalari

31. Iste'molchida bank xizmatini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha taraflarning o'zaro munosabatlari yuzasidan savollar yuzaga kelganda, bank iste'molchiga ushbu savollarning mohiyati bo'yicha asosli javob va boshqa tegishli tushuntirishlar berishi shart. Bunda, bank iste'molchilarga qarz to'lashdan bo'yin tovplash va (yoki) uni to'lamaganlik uchun javobgarlikdan qochishning usul va yo'llarini qo'llash, shuningdek boshqa shunga o'xshash masalalar yuzasidan (shu jumladan boshqa moliya tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlari bo'yicha ham) maslahat berish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

32. Iste'molchi og'zaki maslahat so'rab murojaat qilganda kutish muddati o'ttiz daqiqadan oshmasligi kerak.

33. Bank faoliyatida insofsiz xizmat ko'rsatish amaliyotlarining qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, jumladan:

iste'molchi boshqa kredit tashkiloti bilan bank xizmatini ko'rsatish shartnomasini tuzishiga to'sqinlik qilish maqsadida bank tomonidan kredit byurosiga yoki boshqa tashkilotlarga noto'g'ri axborot berish;

Oldingi tahririga qarang.

iste'molchilarga subordinar qarzni omonat (depozit) yoki omonatga (depozitga) tenglashtirilgan qarz sifatida taklif etish;

(33-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) asosan uchinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

iste'molchi uchun maqbul shartlarda rasmiylashtirilgan boshlang'ich qarzni qaytarish maqsadida uni boshqa kredit shartnomasini tuzishga rag'batlantirish;

iste'molchilarning qarzi miqdorini oshirishga yo'naltirilgan choratadbirlarni amalga oshirganligi uchun bank xodimlarini mukofotlash va rag'batlantirish taqiqlanadi.

34. Iste'molchilarga kreditlar bo'yicha xizmat ko'rsatayotganda banklar kreditlash javobgarligining halollik, shaffoflik, ishonchlilik, sherikchilik munosabatlari, iqtisodiy manfaatlar va imkoniyatlarni hisobga olish tamoyillariga rioya qilishlari shart.

35. Bank:

kredit bo'yicha **nominal** va real foiz stavkalarni kredit berish sanasidagi e'lon qilingan foiz stavkalari ko'rsatkichlaridan oshirmasligi (foiz to'lovlarini **nominal stavka bo'yicha** kredit asosiy summasining kamayib boradigan qoldig'iga hisoblab yoziladi);

kredit shartnomasi tuzilgunga qadar mazkur Nizomning 27 — 29-bandlariga muvofiq axborot iste'molchiga ma'lum qilishi;

kredit shartnomasi tuzilgunga qadar qarz oluvchining to'lovga qobiliyatatligi puxta o'rganishi;

Oldingi tahrirga qarang.

qonunchilik hujjalariiga muvofiq iste'molchidan undirilishi taqiqlangan qo'shimcha yig'imlar, vositachilik haqlari va boshqa to'lovlarini kredit shartnomasi shartlariga kiritmasligi;

(35-bandning beshinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

kredit yoki lizing shartnomasida shartnoma tuzilgandan keyin va mijoz tomonidan pul mablag'lari olingunga yoxud lizing bo'yicha mol-mulk uchun to'lov amalga oshirilgunga qadar bo'lgan davrda iste'molchining kredit yoki lizing olishdan bepul asosda voz kechish huquqini nazarda tutishi;

kredit shartnomasida jarima sanksiyalarini undirmagan holda istalgan vaqtida iste'molchining kreditni (lizingni) muddatidan oldin so'ndirish huquqini nazarda tutishi;

Oldingi tahrirga qarang.

kredit qarzdorligi bo'yicha hisoblangan foizlar, vositachilik haqi va neustoykalarning (penya, jarimalar) eng ko'p umumiyligi summasi qonunchilik hujjalariada belgilangan miqdordan oshib ketmasligini nazorat qilishi;

(35-bandning sakkizinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahrirga qarang.

garov predmeti sifatida qo'yilgan birdan-bir turar joy faqat sud tartibida undirilishi mumkinligini va u ommaviy savdolar orqali realizatsiya qilinishini (qonunchilik hujjalariada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno) iste'molchiga ma'lum qilishi;

(35-bandning to'qqizinchchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

kredit shartnomasining shartlariga qarz oluvchining huquqlarini cheklanishiga va/yoki majburiyatlarini oshirilishiga olib keluvchi o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritilishi yo'l qo'yimasligi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

35¹. Tijorat banklariga:

mikroqarz shartnomalari bo'yicha **yillik qarz summasining** yarmidan ko'p miqdorida **foizlar hisoblash**, komissiya va neustoyka (jarima, penya) undirish, javobgarlikning boshqa choralarini qo'llash;

kredit buyurtmalarini ko'rib chiqish, ssuda hisob raqamlariga xizmat ko'rsatish, kreditlar ajratish uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan kreditlar (mikroqarzlar)ni muddatidan ilgari qoplash uchun neustoyka (jarima, penya) undirish;

jismoniy shaxslarga xorijiy valyutada kreditlar (qarzlar) berish va kreditlar (qarzlar) bo'yicha ularning majburiyatlarini xorijiy valyutada hisobga olish;

ilgari olingan kreditlar (qarzlar) bo'yicha so'ndirilmagan muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lgan taqdirda jismoniy shaxslarga yangi mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish taqiqlanadi.

(35¹-band *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)*

Oldingi tahrirga qarang.

35². Bankning dasturiy ta'minotida yuzaga kelgan nosozliklar iste'molchilarining majburiyatlarini ortishiga va ularning qonuniy manfaatlariga zarar yetishiga olib kelmasligi lozim.

(35²-band *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi*)

36. Kredit bo'yicha to'lovlarni kredit shartnomasi valyutasidan boshqa valyutaga bog'langan holda indeksatsiya qilishni nazarda tutuvchi kredit mahsulotlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

36¹. Iste'molchi-jismoniy shaxs bank xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish shaklini o'zi mustaqil tanlash huquqiga ega.

36². Bank tomonidan to'lov shakliga qarab (naqd pul bilan yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar) bank xizmatlari uchun har xil narxlar (tariflar) belgilash taqiqlanadi.

36³. Iste'molchilarga nisbatan bank tomonidan bank xizmatlari uchun to'lovlarni faqat o'z filiallarining kassalari (mini-banklari) orqali va (yoki) naqd pul shaklida to'lash, shuningdek omonatlarga mablag'lar faqat naqd pul shaklida qabul qilish lozimligi bo'yicha talab belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

36⁴. Iste'molchi-jismoniy shaxs yashash joyidan qat'i nazar, o'zi tanlagan bankka kredit olish uchun murojaat etishga haqli.

(36¹ — 36⁴-bandlar *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi*)

Oldingi tahrirga qarang.

36⁵. Bank qarz oluvchining va (yoki) garovga qo'yuvchining **sug'urta kompaniyasi va (yoki) baholovchini** tanlash huquqini cheklamasligi lozim.

(36⁵-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 26-oktabrdagi 26/2-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-3, 22.11.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019-y., 10/19/3030-3/4059-son)

Oldingi tahrirga qarang.

36⁶. Bank kredit operatsiyalarini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etishi lozim:

kredit shartnomasida kredit mablag'larini berish muddati, shartlari va ulardan foydalanish tartibi aniq ko'rsatilishi;

Oldingi tahrirga qarang.

kredit shartnomasida kredit mablag'larini berish majburiyatini bajarmaganligi yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun bank qarz oluvchi oldida kreditor sifatida o'z javobgarligini aks ettirishi;

(36⁶-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdagagi 20/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

iste'molchi — jismoniy shaxslar bilan tuzilgan kredit shartnomasida **kreditning to'liq qiymati** miqdorini ko'rsatishi shart. Bunda kreditning to'liq qiymati miqdori shartnomaning **birinchi varag'inining o'ng yuqori burchagida**, kvadrat shakldagi ramka ichiga, oq fonda qora rang bilan, "Times New Roman" 14 o'lchamli shriftdan kam bo'limgan yoki shunga o'xshash shriftni qo'llagan holda, raqam va so'zlar bilan yoziladi.

(36⁶-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdagagi 20/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) asosan to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

36⁷. Kredit shartnomasiga ilova qilingan kreditni qaytarish jadvali kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblanib, bank va qarz oluvchi tomonidan imzolanishi, shuningdek, qoida tariqasida kredit shartnomasi matnida ilova ko'rinishidagi kreditni qaytarish jadvaliga havola bo'lishi kerak.

36⁸. Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni qarz oluvchiga hakiqatda berilgan **kredit asosiy summasining** qoldig'iga nisbatan kredit shartnomasida belgilangan nominal stavka bo'yicha hisoblashi kerak.

Bunda, kreditdan foydalanganlik uchun foizlar kredit summasi qarz oluvchining hisobvarag'iga yoki qarz oluvchi tomonidan ko'rsatilgan boshqa hisobvaraqla o'tkazilgan yoxud qarz oluvchiga naqd pul ko'rinishida berilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Agar kredit shartnomasida kreditni so'ndirish davrida imtiyozli davr ko'zda tutilgan bo'lsa, unda imtiyozli davrning boshlanish kuni kredit berilgan sanadan hisoblanishi kerak.

36⁹. Bank qarz oluvchiga kredit shartnomasida nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu **kredit bo'yicha**

mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan **yozma xabarnoma yuborishi shart**.

36¹⁰. Jismoniy shaxs — qarz oluvchi tomonidan iste'mol krediti va ipoteka krediti bo'yicha qarzdorlik to'liq to'langanidan so'ng, bank mazkur qarzdorlik bo'yicha amalga oshirilgan oxirgi to'lov sanasining **keyingi uch ish kunidan kechiktirmagan holda** qarz oluvchining shaxsiy kabinetida kredit bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirilganligi va ushbu kredit shartnomasi bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot joylashtirishi shart.

36¹¹. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi (o'zgarmas yoki o'zgaruvchi foiz stavkasi) hamda kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli (differensial yoki annuitet) tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq kredit shartnomasida nazarda tutilishi kerak.

(36⁶ — 36¹¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 16-yanvardagi 1/8-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-4, 21.02.2020-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.02.2020-y., 10/20/3030-4/0204)

Oldingi tahrirga qarang.

36¹². Banklar:

kredit ajratish qoidalarida belgilangan muddatda iste'molchi tomonidan kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqishi hamda kredit ajratish to'g'risida yoki kredit ajratishni asoslantirilgan holda rad etish haqida qaror qabul qilishi;

kredit ajratish to'g'risida yoki kredit ajratishni asoslantirilgan holda rad etish haqida qabul qilingan qaror to'g'risida bunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay iste'molchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Bunda, agar xabarnoma iste'molchiga elektron pochta, SMS-xabar yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali yuborilgan bo'lsa, unda bank iste'molchi uchun uning so'roviga muvofiq xabarnomani yozma qog'oz shaklda ham taqdim etish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

(36¹²-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

37. Bank kredit bo'yicha **qarzdorlikni undirishni** kredit shartnomasida va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va asoslarda amalga oshiradi.

(37-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish maqsadida bank qarzdorlikni so'ndirish zarurligi va kredit bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligining oqibatlari

haqida tegishli tarzda qarzdorni **xabardor qiladi**. Qarzdorlik to'g'risidagi xabarnoma asosiy qarz summasi, hisoblangan foizlar, vositachilik haqi, neustoyka, boshqa to'lovlar (agar mavjud bo'lsa) ko'rsatilgan holda qarzdorlik miqdori to'g'risida qarzdor uchun qisqacha axborotni o'z ichiga olgan bo'lisi kerak. Xabarnomani qo'lga topshirish hamda u haqida telefon vositalari orqali og'zaki eslatmalar qilish mahalliy vaqt bilan soat 20:00 dan 8:00 gacha yo'l qo'yilmaydi.

(37-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

37¹. Qarz oluvchi kredit (qarz) bo'yicha garovda turgan o'zining depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini kredit (qarz) shartnomasi davrining xohlagan vaqtida **depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qati nazar**, mazkur kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega.

Bunda, qarz oluvchi kredit (qarz) bo'yicha garovda turgan o'zining muddatli depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan depozit (omonat) muddati tugagunga qadar kreditni (qarzni) qaytarish uchun yo'naltirmoqchi bo'lsa, u bu haqda bankni depozitni (omonatni) qaytarishni mo'ljallayotgan sanadan **kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim**.

37². Qarzdordan kreditning **joriy to'lovi uchun** kreditni (qarzni) qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda bank kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini karz oluvchining kreditining (qarzning) asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiradi hamda kredit (qarz) summasini qayta hisoblaydi, agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa.

(37¹-37²bandlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 24-avgustdagi 21/13-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-2, 25.09.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2019-y., 10/19/3030-2/3804-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Agar kreditni qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng kredit bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan o'zgaruvchan foiz stavkasi o'zgarishi, kredit shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida **qayta ko'rib chiqilishi** (shu jumladan, kreditning restrukturizatsiya qilinishi), qarz oluvchi tomonidan kredit qisman **muddatidan oldin so'ndirilishi** munosabati bilan kredit bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq kredit to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda bank kreditni qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, qarz oluvchiga taqdim qilishi lozim.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi. Ushbu qoida kredit shartnomasida qayd etilishi shart.

(37²-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 16-yanvardagi 1/8-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-4, 21.02.2020-y.) asosan xatboshilar bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.02.2020-y., 10/20/3030-4/0204)

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

37³. Qarz oluvchi-yuridik shaxsning **xorijiy valyutada** kredit olishga bo'lgan tanlovi va bunday tanlovga ko'ra xorijiy valyuta kursining o'zgarishi natijasida xorijiy valyutada olingan kredit bo'yicha milliy valyutadagi qarz yukining oshishi bilan bog'liq ravishda kelib chiqadigan oqibatlar qarz oluvchining tavakkalchiligi hisoblanishi haqidagi shart bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasida aks ettirilishi lozim.

(37³-band *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)*

Oldingi tahrirga qarang.

37⁴. Bank kredit (qarz) shartnomasiga asosan kredit (qarz) bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab **uchish kunidan kechiktirmagan holda** mazkur qarz bo'yicha:

(37⁴-bandning birinchi xatboshisi *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi*)

garovda turgan **mulknii** taqiqdan chiqarish;

garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi **yozuvni** garov reyestridan chiqarish choralarini ko'rishi shart.

(37³ va 37⁴-bandlar *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 26-oktabrdagi 26/2-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-3, 22.11.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019-y., 10/19/3030-3/4059-son*)

Oldingi tahrirga qarang.

37⁵. Bank kredit bo'yicha tuziladigan **garov shartnomasida** bankning garov ta'minotiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda qarz oluvchining kreditning qoplanmagan qismidan ortiq summada garov ta'minoti summasini kamaytirish huquqini, shuningdek garov ta'minotini kamaytirish tartibi va usullarini aks ettirishi shart.

(37⁵-band *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi*)

Oldingi tahrirga qarang.

38. Kredit bo'yicha talabni boshqa shaxs foydasiga voz kechish **faqat qarzdorning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin**. Qarzdorning roziligidan qat'i nazar, kredit bo'yicha talabni uchinchi shaxslarga o'tkazish bo'yicha bankning (kreditorning) huquqini **kredit shartnomasiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi**. Kredit bo'yicha talabni uchinchi shaxsga o'tkazish huquqi alohida bitim bilan rasmiylashtiriladi.

(38-bandning birinchi xatboshisi *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.)*

*tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-ton
— 2019-yil 16-oktabrda kuchga kiradi)*

Mazkur bandning birinchi xatboshisida nazarda tutilgan qoidalar ipoteka kreditlari bo'yicha talablarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi PF-5715-ton "Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan tashkil etilgan Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasiga o'tkazish holatlariga tatbiq etilmaydi.

(38-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-tonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-ton — 2019-yil 16-oktabrda kuchga kiradi)

Oldingi tahririga qarang.

38¹. Bank tomonidan mijozning bank **hisobvarag'i** va (yoki) bank **omonati**, shu jumladan, bank kartalari bo'yicha (bank kartalaridan foydalanayotgan paytda "PIN-kod"ni noto'g'ri terilishi oqibatida blokirovkaga tushgan holatlar bundan mustasno) **amaliyotlar to'xtatib qo'yilganda**, bank amaliyot to'xtatilgan sanadan boshlab **keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda** hisobvaraq yoki omonat egasiga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

38². Bank tomonidan kreditlar, mikroqarzlar va lizing bo'yicha qarzdorliklarni so'ndirish uchun bank hisobvarag'i va (yoki) bank omonatidan (shu jumladan, bank kartalari bo'yicha) mablag'lar hisobvaraq (omonat) **egasining topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda**, bank ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab **keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda** hisobvaraq (omonat) egasiga uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborishi shart.

38³. Mazkur Nizomning 38¹ va 38²-bandlarida nazarda tutilgan xabarnomalar (ma'lumotnomalar) mijozlarga shaxsan, pochta yoki elektron aloqa vositalari va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali topshirilishi mumkin. Xabarnomani (ma'lumotnomani) olish usuli iste'molchi tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi va tanlangan usul bank hisobvarag'i yoki omonati shartnomasida ko'rsatilishi lozim. Mijoz xabarnoma (ma'lumotnoma) yetkazish usulini bankka shaxsan yoki pochta orqali yozma ariza taqdim etish yo'li bilan o'zgartirish huquqiga ega. Bunda mijozdan qabul qilingan ariza bank tomonidan uning bank hisobvarag'i bo'yicha **yig'majildida** yoki omonat hisobvaraqlari bo'yicha alohida kartotekada saqlanadi.

Xabarnomani (ma'lumotnomani) mijozga yetkazish usuli o'zgarganligi munosabati bilan bank hisobvarag'i yoki omonati shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish talab etilmaydi.

(38¹ — 38³-bandlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 26-oktabrdagi 26/2-tonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-3, 22.11.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019-y., 10/19/3030-3/4059-ton)

Oldingi tahrirga qarang.

38⁴. Bank o‘z filiali yoki uning tarkibiy tuzilmasida **terminal orqali to‘lovlarni amalga oshirish** yoki bank kartasidagi pul mablag‘ini naqdlashtirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatganda bank kartasini taqdim etuvchiga (bank karta egasi yoki kartani ishlatish vakolati berilgan shaxs) ushbu **kartaning “PIN-kod”ini mustaqil terishga imkon yaratib berishi lozim.**

(38⁴-band O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro‘yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

2-§. Iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha minimal talablar

39. Bank:

ushbu Nizomning 23-bandida nazarda tutilgan, xizmat ko‘rsatish joylarida oshkor etiladigan axborotdan barcha iste’molchilar butun ish vaqtin davomida foydalana olishlariga imkon yaratib berish kerak;

axborot iste’molchilar uchun qulay va moneliksiz tanishish imkonini beradigan tarzda joylashtirilishini ta’minlashi kerak;

iste’molchilar bilan bevosita ishlovchi bank xodimlarini (bundan buyon matnda administratorlar deb yuritiladi) iste’molchilar ko‘ra oladigan, xodimning familiyasi, ismi va lavozimi qayd etilgan vizual identifikatsiya vositalariga ega bo‘lishlarini ta’minlashi lozim;

bank xizmatlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan joyida iste’molchilar va nogironligi bo‘lgan hamda imkoniyati cheklangan iste’molchilar bilan shartnomalarni tuzish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

40. Administratorlar ushbu Nizomda nazarda tutilgan, iste’molchiga beriladigan axborotning minimal hajmi sodda shaklda taqdim eta olishi, shuningdek iste’molchining bunday axborot qayd etilgan **bank hujjatlari bilan** tanishishi uchun imkon yaratishi shart.

Bank administratorlarga ushbu Nizomning 23-bandida ko‘rsatilgan axborotni olish, o‘rganish va yangilash imkoniyatini ta’minlashi shart.

Oldingi tahrirga qarang.

40¹. Bank tomonidan iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda aniq tartib va qo‘llanmalar ko‘rsatilgan, shu jumladan mijozlar bilan muloqotga kirishish, ehtiyojlarini aniqlash, mahsulot/xizmatni taqdim etish, taklif shakllantirish, e’tirozlar bilan ishlash va muloqotni yakunlash jarayonida bank xodimlarining xulq-atvori va kasbiy odob-axloq qoidalarini nazarda tutuvchi mijozlarga xizmat ko‘rsatish standartlari joriy etilishi shart.

(40¹-band O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro‘yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

(3-paragraf O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 26-avgustdagi 18/6-sonli qaroriga (ro‘yxat raqami 3030-5, 07.09.2020-y.) asosan o‘z kuchini

yo'qotgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.09.2020-y., 07/20/3030-5/1266-son)

4-bob. Qarzdorlik yuzaga kelganda banklarning iste'molchilar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish

Oldingi tahririga qarang.

41. Kredit shartnomasi bo'yicha **muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik** yuzaga kelganda, bank iste'molchi zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab **7 (yetti) kalendar kuni davomida** iste'molchi bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa bog'lash usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, iste'molchiga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berishi shart.

(41-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahririga qarang.

42. Bank qonunchilik hujjatlari talablarini hisobga olgan holda iste'mol krediti shartnomasi bo'yicha iste'molchini muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatları bajarilmaganligi holati, muddati, summaları, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilishi, iste'molchidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rashi shart.

(42-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahririga qarang.

43. Iste'molchi kredit shartnomasi bo'yicha qarzning asosiy summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to'lash muddatlarini buzganda, bank tegishli kredit shartnomasida nazarda tutilgan usulda **nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan** o'z talabnomasini iste'molchiga yuboradi.

(43-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2023-yil 4-yanvardagi 30/10-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-8, 26.01.2023-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son — 2023-yil 28-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahririga qarang.

44. Bank yo'llaydigan talabnomada quyidagi axborot ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

bank nomi va uni identifikatsiyalash uchun yetarli ma'lumotlar;

talabnomasi rasmiylashtirilgan sanadagi iste'molchining joriy qarzi miqdori va tarkibi;

qarzni to'lash usul(lar)i;

iste'molchi o'z majburiyatlarini bajarishi lozim bo'lgan muddat (o'n kundan kam bo'lmasligi lozim);

talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha iste'molchi o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari;

nizoni sudgacha hal qilish usullari.

(44-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

45. Bank va iste'molchi taraflarning o'zaro roziligidagi ko'ra qonunchilik hujjatlarida belgilangan nizoni sudgacha hal qilish usullarini, shu jumladan **muzokaralar** o'tkazish orqali, qo'llashga haqli.

(45-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahrirga qarang.

46. Iste'molchi nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan talabnomada belgilangan muddatda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, bank sudga da'vo bilan murojaat etishga haqli.

(46-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

5-bob. Iste'molchilarining murojaatlarini ko'rib chiqishga qo'yiladigan talablar

Oldingi tahrirga qarang.

47. Bank iste'molchilarining murojaatlarini ko'rib chiqish tartibiga ega bo'lishi kerak. Bank iste'molchilarining murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi mazkur Nizomga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

(47-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Bank tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bankning (filialning) stendlarida va **rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bo'lishi lozim**.

Iste'molchining talabiga muvofiq bank iste'molchiga murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini tushuntirib berishi lozim.

Bank murojaatlarni o'z vaqtida va xolisona ko'rib chiqilishini ta'minlaydi hamda uning natijalari bo'yicha murojaat etuvchilarni xabardor qiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

47¹. Bank iste'molchining murojaat qilish huquqini cheklashga haqli emas. Bank tomonidan iste'molchilarining murojaatlarini ko'rib chiqish bepul amalga oshiriladi.

Bank tomonidan murojaatni qabul qilishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

47². Bank o'zining rasmiy veb-sayti orqali iste'molchilarining elektron murojaatlarini qabul qilishni tashkillashtirishi lozim.

47³. Banklar iste'molchilar bilan telefon aloqasi orqali bog'lanishini ta'minlovchi Call-markazlarga ega bo'lishlari lozim. Mazkur Call-markazlar orqali iste'molchilarga bank faoliyati bilan bog'liq og'zaki maslahatlar va tushuntirishlar berilishi kerak.

47⁴. Call-markazlar telefonlarining raqamlari bank rasmiy veb-sayti bosh sahifasida, shuningdek uning filiallari, mini-banklari va bank binosidan tashqarida joylashgan kassalarining axborot stendlarida joylashtirilishi lozim.

47⁵. Call-markaz orqali tushayotgan murojaatlar **ish vaqtি davomida** qabul qilinadi.

47⁶. Iste'molchining og'zaki murojaatida bayon etilgan masala qo'shimcha o'rganishni yoki qo'shimcha tekshirish o'tkazishni talab etmasa, ushbu murojaatga javob telefon orqali yoki shaxsiy qabul davomida og'zaki berilishi mumkin.

Agar iste'molchining og'zaki murojaatida bayon etilgan masalasi qo'shimcha o'rganishni talab etsa, iste'molchiga murojaatni tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda yozma yoki elektron shaklda taqdim etish taklif etiladi.

(47¹ — 47⁶-bandlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrdan kuchga kiradi)

48. Iste'molchilarning barcha yozma va elektron murojaatlari o'sha kunning o'zida, ish vaqtি tugaganidan keyin kelib tushgan taqdirda esa, keyingi ish kuni murojaatlar hisobini qayd etish daftarida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Iste'molchilarning murojaatlari hisobini qayd etish daftari raqamlangan, tikilgan va muhrlangan bo'lishi kerak.

Iste'molchilarning murojaatlari hisobini qayd etish daftari to'liq maxfiylik va axborot xavfsizligi ta'minlangan hollarda elektron shaklda yuritilishi mumkin. **Daftar kamida besh yil saqlanadi.**

49. Iste'molchilardan kelgan murojaatlar bank (filial) rahbari ko'rsatmasiga asosan belgilangan ijrochi tomonidan ko'rib chiqildi.

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

49¹. Iste'molchilarning murojaatlari bankka kelib tushgan kundan e'tiboran o'n besh kundan kechiktirmay, qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi va yozma yoki elektron shaklda javob berilishi kerak.

(49¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvinining 2020-yil 16-yanvardagi 1/8-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-4, 21.02.2020-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.02.2020-y., 10/20/3030-4/0204)

49². Quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilmaydi:

anonim murojaatlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlar, ularning vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lмаган taqdirda.

Murojaatlar ko'rmay qoldirilganda tegishli **xulosa tuziladi**, u bankning rahbari yoki vakolat berilgan mansabdar shaxsi tomonidan tasdiqlanadi.

Jismoniy va yuridik shaxs vakilining vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi sababli murojaatlar ko'rmay qoldirilganligi to'g'risida murojaat qiluvchi tegishli tartibda xabardor qilinadi.

(49¹ va 49²-bandlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 8-iyundagi 13/14-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-1, 15.07.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son — 2019-yil 16-oktabrдан kuchga kiradi)

50. Bank (filial) rahbariyati bankning rasmiy veb-sayti va axborot stendlarida joylashtirilgan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvaliga muvofiq iste'molchilarni shaxsan qabul qilishlari shart. Shaxsiy qabul bayonnomma asosida rasmiylashtirilib, iste'molchi tomonidan imzolanadi yoki iste'molchini xabardor qilgan holda maxsus (audio va video) texnika vositalari orqali ovozlar yozib olinishi yoki videotasvirga tushirilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

50¹. Bankning mansabdar shaxslari tomonidan shaxsiy qabulni o'tkazishga doir talab bilan jismoniy shaxslardan va yuridik shaxslarning vakillaridan yozma murojaatlar kelib tushganda, bank ushbu murojaatlar kelib tushgan sanadan boshlab **7 kundan kechiktirmagan** holda ushbu shaxslarga bankning mansabdar shaxslariga qabul sanasi va vaqtি ko'rsatilgan holda qabul belgilanganligi, shuningdek qabulni amalga oshiradigan bank mansabdar shaxslarining familyiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimini ko'rsatgan holda xabarnoma yuborishi lozim.

(50¹-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 26-oktabrdagi 26/2-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-3, 22.11.2019-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2019-y., 10/19/3030-3/4059-son)

51. Iste'molchilarni shaxsiy qabul qilish bankning mas'ul xodimi tomonidan muntazam ravishda, bank xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan joyda amalga oshiriladi.

52. Telefon orqali murojaat etilganda, ushbu murojaatni keyinchalik ko'rib chiqishda foydalanish maqsadida iste'molchini oldindan xabar qilgan holda suhbat maxsus (audio) texnika vositalari orqali yozib olinishi mumkin.

53. Bank xodimining harakatlari yoki harakatsizligi ustidan kelib tushgan murojaat, shu xodimning o'ziga ko'rib chiqish uchun topshirilishi mumkin emas.

54. Iste'molchining murojaati yuzasidan yo'llanadigan javob xati bank (filial) rahbariyati tomonidan imzolanishi lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Murojaatlarga javoblar mumkin qadar murojaat etilgan tilda bayon qilinadi, javoblar murojaatda ko'rsatilgan har bir masala bo'yicha vajlarni inkor etuvchi yoki tasdiqlovchi aniq asoslarni (zaruratga qarab qonunchilik hujjatlari normalariga havolalar qilingan holda) o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

(54-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

55. Agar bankka bir nechta (ikki yoki undan ortiq) iste'molchi tomonidan murojaat etilganda, agar murojaatda javobni boshqa shaxsga yuborish talab etilmagan bo'lsa, murojaat qiluvchilarning ro'yxatida bиринчи ko'rsatilgan shaxsga yuboriladi.

56. Iste'molchining murojaati asosli deb topilgan hollarda, bank kamchiliklarni bartaraf etish, iste'molchining qonuniy manfaatlari va huquqlarini tiklash yuzasidan tegishli choralarni ko'rishi zarur.

57. Bank murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ichki nazoratni ta'minlashi lozim.

58. Bank muntazam ravishda:

iste'molchilarining murojaatlarini monitoring qiladi, unda qayd etilgan masalalarni hamda murojaatlar dinamikasini tahlil etadi, umumlashtiradi;

iste'molchilarining murojaatlari bilan ishslashni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida bank faoliyatida bunday kamchiliklar takrorlanmasligini ta'minlash lozim.

Oldingi tahrirga qarang.

Yakuniy qoidalar

(6-bobning nomi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

59. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

(59-band O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldagagi 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)

Oldingi tahrirga qarang.

60. Bank o'z xodimining xizmat vazifasini bajarishi davomida yo'l qo'ygan nojo'ya xatti-harakatlari natijasida omonatchiga yetkazilgan zararlar bo'yicha javobgardir.

(60-band O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2020-yil 9-dekabrdagi 26/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-6, 14.01.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son — 2021-yil 15-apreldan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizomga

1-ILOVA

Kreditning (mikroqarzning) to'liq qiymatini hisoblash

TARTIBI

Mazkur Tartib jismoniy shaxslar — iste'molchilarga (bundan buyon matnda “qarz oluvchilar” deb yuritiladi) ajratilgan kreditlarning (mikroqarzlarning) to'liq qiymatini hisoblash tartibini belgilaydi.

1. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanadi:

kreditning (mikroqarzning) to'liq qiymati (bundan buyon matnda “KTQ” deb yuritiladi) — kredit (mikroqarz) olish bilan bog'liq to'lovlarining haqqoniy, yillik va samarali hisoblashdagi foiz stavkasi;

kredit (mikroqarz) shartnomasi — bank tomonidan qarz oluvchiga pul mablag'larini to'lovilik, muddatlilik va qaytarishlilik shartlari asosida berish haqidagi bank va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishuv.

2. KTQni hisoblab chiqishda qarz oluvchining quyidagi to'lovleri hisobga olinadi:

a) asosiy qarz va foizlar bo'yicha to'lovlar;

b) bank foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlariga muvofiq qarz oluvchining majburiyatlariga kirsa va/yoki kredit (mikroqarz) ajratilishi bunday to'lovlarining amalga oshirilishiga bog'liq bo'lsa;

v) uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar bunday to'lovlar kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlariga muvofiq qarz oluvchining majburiyatlariga kirsa, shu jumladan:

sug'urta tashkiloti foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar, agar sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi yuzaga kelgan taqdirda naf oluvchi bo'lib bank hisoblansa;

qarz oluvchining majburiyatları ta'minotiga qabul qilingan va garovga qo'yuvchining ixtiyorida qoladigan garov predmetini garov shartnomasi bo'yicha sug'urta qilishda qarz oluvchi tomonidan sug'urta tashkilotining foydasiga amalga oshiriladigan to'lovlar;

qarz oluvchi tomonidan kafolat (kafillik) olish uchun kafolat beruvchiga (kafilga), shuningdek garovga topshirilayotgan mulkni baholash uchun baholovchi tashkilotga to'lanadigan to'lovlar;

mijozlarni jalb qilish, ular tomonidan kredit (mikroqarz) olish uchun taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish, ushbu hujjatlarni bankka topshirish, kreditlarni (mikroqarzlarni) qoplash hisobiga bank mijozlaridan to'lovlar va pul o'tkazmalarini qabul qilish bo'yicha bankka xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar (ositachilar) hisobiga amalga oshirilgan to'lovlar.

Bank tomonidan KTQ ko'rsatkichining hisob-kitobi kredit (mikroqarz) shartnomasi muddati tugagunga qadar mazkur bandda nazarda tutilgan barcha to'lovlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

3. KTQ hisob-kitobiga quyidagilar kiritilmaydi:

a) qarz oluvchining uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiradigan to'lovleri, mazkur Tartibning 2-bandida ko'rsatilgan to'lovlar bundan mustasno;

b) bajarish majburiyati kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlaridan emas, balki qonunchilik talablaridan kelib chiqadigan, qarz oluvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan to'lovlar;

v) qarz oluvchining kredit (mikroqarz) shartnomasi shartlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi bilan bog'liq to'lovlar, shu jumladan neustoyka va/yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa to'lovlar;

g) bank plastik kartalaridan foydalangan holda ajratilgan kreditlar (mikroqarzlar) bo'yicha to'lovlar, xususan:

bank kartasini chiqarish bilan bog'liq komissiyalar;

bank kartasiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq komissiyalar;

bank va/yoki to'lov tashkilotlari mobil ilovasi, bankomatlari va infokiosklari orqali kredit to'lovlari amalga oshirilganda undiriladigan komissiyalar;

kredit (mikroqarz) summalarini bankomatlardan foydalangan holda naqd pulda olganligi uchun to'lanadigan komissiyalar.

4. Banklar quyidagi hollarda KTQni hisoblab chiqishlari shart:

a) qarz oluvchilar bilan kredit (mikroqarz) shartnomasi tuzilganda;

b) kredit (mikroqarz) olish istagini bildirgan qarz oluvchilarga kredit (mikroqarz) olish shartlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish vaqtida. Agar ma'lumotlar taqdim etish vaqtida mazkur Tartibning 2-bandida nazarda tutilgan ayrim to'lovlari miqdorini aniqlash imkonи bo'lmasa, u holda bank tomonidan unga ma'lum bo'lgan shu turdagи to'lovlarga amal qilishi hamda kredit (mikroqarz) olish istagini bildirgan qarz oluvchilarga shu to'lovlarning manbalarini oshkor qilishi lozim (masalan, KTQni hisoblashda tariflaridan foydalilanilgan sug'urta kompaniyasining nomi va boshqalar).

5. KTQni hisoblashda qarz oluvchining kredit (mikroqarz) bo'yicha amalga oshirib bo'lgan to'lovlari ular haqiqatda to'langan vaqtda, kelajakda amalga oshiradigan to'lovlari esa kredit (mikroqarz) shartnomasi tuzilgan sanada ma'lum bo'lgan kredit (mikroqarz) ajratish shartlariga asosan to'lovlarni to'lash jadvali bo'yicha hisobga olinadi.

Agar garov predmetini sug'urtalanishi kredit (mikroqarz) shartnomasi tuzilgan sanadan keyin amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda bank qarz oluvchidan sug'urta kompaniyasiga amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan to'lov summasini aniqlashi va shu summadan kelib chiqqan holda KTQni hisoblab chiqishi shart.

6. Kreditning to'liq qiymatini hisoblashda quyidagi shartlar hisobga olinadi:


a) agar kredit (mikroqarz) shartnomasiga muvofiq iste'molchi kredit (mikroqarz) mablag'larini qismlarga bo'lib olishi yoki kredit (mikroqarz) olish vaqtini tanlash mumkinligi nazarda tutilgan bo'lsa, unda kredit (mikroqarz) summasi iste'molchiga kredit (mikroqarz) shartnomasini tuzish vaqtida to'liq o'tkazilgan deb hisoblanadi;

b) kredit (mikroqarz) olish istagini bildirgan qarz oluvchilarga kredit (mikroqarz) olish shartlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish vaqtida, kreditning to'liq qiymati tarkibidagi sug'urta xarajatlarini hisoblashda sug'urta

tashkilotlarining joriy davrda amalda bo'lgan stavka va mukofot miqdorlaridan eng yuqorisi olinadi. Shuningdek, iste'molchilar kelgusida sug'urta tashkilotlarining stavka va mukofot miqdorlari o'zgarishi ehtimoli kreditning to'liq qiymatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida xabardor qilinishlari shart.

7. Agar kreditning (mikroqarzning) foiz stavkasi bazaviy ko'rsatkichlarga (Markaziy bankning asosiy stavkasi, inflatsiya darajasi va boshqalar) bog'langan bo'lsa, u holda bank KTQni hisoblashda shu kundagi bazaviy ko'rsatkichlarning miqdoridan foydalanadi.

8. Banklar KTQni dasturiy vositalardan foydalangan holda hisoblaydi. KTQ quyidagi formula asosida hisoblanadi:



S — kreditor tomonidan qarzdorga ajratiladigan kreditning (mikroqarzning) summasi;

R₁ — mijozning kreditni (mikroqarzni) so'ndirish uchun yo'naltiradigan navbatdagi to'lov summasi; (Pi kreditni so'ndirish grafigidagi pul oqimlarini anglatadi)

APR — kreditning (mikroqarzning) to'liq qiymati (KTQ);

m — mijozning kreditni (mikroqarzni) so'ndirish uchun yo'naltiradigan to'lovleri soni;

(Masalan, iste'molchi kredit (mikroqarz)ni 3 yil davomida har oyda bir marta so'ndirib borsa, m — 36 ga teng bo'ladi)

i — mijozning kreditni (mikroqarzni) so'ndirish uchun yo'naltiradigan navbatdagi to'lovingning tartib raqami;

(Masalan, kreditni so'ndirish grafigiga asosan iste'molchi har oy so'ndirib borsa va joriy to'lovi 5-chi oyga to'g'ri kelsa, i — 5 ga teng bo'ladi)

t_i — kredit (mikroqarz) ajratilgan kundan boshlab mijoz tomonidan so'ndirish uchun yo'naltiriladigan navbatdagi to'lovga qadar bo'lgan muddat (kunlarda).

(Agar iste'molchi har oy so'ndirilib boriladigan kredit (mikroqarz) bo'yicha 5-chi oy uchun to'lov qilishi kerak bo'lsa t₅ — 150 kunni tashkil etadi)

9. KTQni hisoblashda verguldan keyin bir belgiligacha yaxlit qilib hisoblanadi. Agar verguldan keyingi ikkinchi belgi "5" ga teng va undan yuqori bo'lsa, u holda verguldan keyingi birinchi belgi bir birlikka oshiriladi. Masalan, KTQ ko'rsatkichi 18,66 ni tashkil qildi. U yaxlit qilib hisoblangach — 18,7 hosil bo'ladi.

10. Banklar iste'molchi — jismoniy shaxsga uning talabiga ko'ra KTQ miqdori to'g'risidagi ma'lumot bilan birga kredit (mikroqarz) shartnomasi tuzish paytida uning mutlaq qiymatini, ya'ni kreditning (mikroqarzning) asosiy qiymati, foizlari va boshqa to'lovlar, shu jumladan amaldagi ta'riflar bo'yicha uchinchi shaxs foydasiga to'lanadigan to'lovlarini, agar bunday to'lovlar iste'molchi —

jismoniy shaxsning majburiyati bo'yicha shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan bo'lsa, ularni alohida ko'rsatgan holda yozma ma'lumot taqdim etadi.

11. Banklar ommaviy axborot vositalari orqali kredit (mikroqarz) to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilganlarida, ushbu e'londa bankka murojaat etilganida mijozlarga kredit (mikroqarz) olish bilan bog'liq KTQni hisoblab berilishi haqida axborot berishlari lozim.

(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdagи 20/7-sonli qarori (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

Oldingi tahrirga qarang.

Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizomga

2-ILOVA

Kreditning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot

VARAQASI*

Tijorat bankning nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	
---	--

1-bo'lim. Kredit bo'yicha ma'lumotlar

1. Kreditning turi	
2. Kreditning maqsadi	
3. Kreditning miqdori	
4. Kreditdan foydalanish muddati	
5. Kreditdan foydalanish muddati davomidagi foiz stavkasi (nominal miqdorda) va ushbu foiz miqdori bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summa	(foiz ko'rinishida) _____ (kreditning to'liq muddatiga pul ko'rinishida) _____
6. Kreditning to'liq foydalanish muddati davomida to'lanadigan jami summa (kreditning miqdori) + (hisoblanadigan foizlar) = (jami to'lanadigan summa)	
7. Kreditning imtiyozli davri (agar mavjud bo'lsa)	
8. To'lovlarining davriyligi (har oyda, har chorakda va h.k.)	
9. Kreditni so'ndirish usuli (annuitet usulida (teng miqdorlarda), differensial usulida)	
10. To'lovlarining davrida bir martalik to'lov summasi: annuitet usulida differensial usulida	_____ (oraliq to'lovlaridan eng ko'p miqdordagi to'lov)
11. Kreditni ajratish shakli (mahsulot/xizmat ta'minotchisi hisobvarag'iga pul o'tkazish, naqd pul, bank kartasiga o'tkazish, va h.k.)	
12. Kredit bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar, jumladan (agar bunday xarajatlar mavjud bo'lsa): Turlari bo'yicha bankning komissiya va yig'implari (alohida ko'rsatilsin)	_____ (kreditning to'liq muddatiga pul ko'rinishida, jami) _____ (kreditning to'liq muddatiga pul ko'rinishida, jami)
uchinchli shaxslar xizmati (alohida ko'rsatilsin)	_____ (kreditning to'liq muddatiga pul ko'rinishida, jami)

13. Kreditning to'liq qiymati (nominal foiz stavkasini va kreditga xizmat ko'rsatish xarajatlarini o'z ichiga oladi)	
14. Kredit olish bo'yicha taqdim qilingan arizani ko'rib chiqish muddati	

2-bo'lism. Boshqa moliyaviy majburiyatlar bilan bog'liq muhim shartlar

1. Kredit bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida so'ndirilmaganligi uchun shartnomada ko'zda tutilayotgan to'lashi lozim bo'lgan neustoyka (jarima, penya) (agar bunday shart mavjud bo'lsa)	(foiz yoki qatiy belgilangan summa ko'rsatiladi, shuningdek neustoyka (jarima, penya) hisoblash uchun asos bo'lувчи shartnoma shartlari keltiriladi)
2. Kredit bo'yicha qarzdorlik o'z vaqtida so'ndirilmaganligi uchun kredit summasidan to'lanadigan oshirilgan foiz stavkasi miqdori (agar bunday shart mavjud bo'lsa)	(foizda)
3. Kreditning ta'minoti (ta'minot predmetiga qo'yiladigan minimal talablar, garovning minimal qiymati)	

Kredit olishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'rganib chiqing!

Siz kreditning shartlari va qiymati to'g'risida, to'lovlari va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida (foizlar, jarima va penyalari), kredit shartnomasi bo'yicha Sizning huquqlaringiz va majburiyatlariningiz to'g'risida, kredit shartnomasi bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlar va javobgarliklar to'g'risida, shuningdek Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va batatsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni (telefon raqami ko'rsatiladi) raqamli telefonga yoki (bankning pochta manzili ko'rsatiladi) manzilga yoki (bankning elektron pochtasi manzili ko'rsatiladi) elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI
VA HAQIQIYLIGI TASDIQLANADI.**

(bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)

(to'ldirilgan sana)

* Mazkur varaqqa kredit shartnomasi yoki kredit olish uchun buyurtmanoma o'rnini bosmaydi, aksincha turli banklarning kreditlash shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovnini amalga oshirishga yordam beradi.

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinining 2021-yil 24-avgustdagagi 20/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

Oldingi tahririga qarang.

Bank xizmatlari iste'molchilarini bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizomga
3-ILOVA

Muddatli omonatning asosiy shartlari to'g'risidagi axborot

VARAQASI*

Tijorat bankining nomi, rasmiy veb-sayti, telefon raqamlari	
1-bo'lism. Omonatning asosiy shartlari	
1. Omonat nomi	
2. Omonatning valyutasi	

3. Omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi (agar omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi differensiallashgan yoki omonatni rasmiylashtirish usuliga bog'liq bo'lsa, har biri alohida ko'rsatiladi)	
4. Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni kapitalizatsiyasi mavjudligi (hisoblangan foizni asosiy mablag'ga qo'shib qayta foiz hisoblash)	
5. Omonatning muddati	
6. Omonatga qo'yiladigan mablag'ning eng kam miqdori (agar mavjud bo'lsa)	
7. Omonat bo'yicha foizlarni to'lash davriyligi	
8. Omonatni rasmiylashtirish usuli (onlayn yoki bankka tashrif buyurish orqali)	
9. Qo'shimcha mablag' kiritish imkoniyati	
10. Avtouzaytirish (omonat muddati tugaganda omonat muddatini bank tomonidan bir tomonlama uzaytirish)	
11. Boshqa shartlar	

2-bo'lim. Boshqa muhim shartlar

1. Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini omonat muddati tugagunga qadar qisman yechib olish imkoniyatining mavjudligi	
2. Omonat shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi	

Omonat qo'yishga rozi bo'lishdan oldin diqqat bilan o'r ganib chiqing!

Siz omonatning shartlari, omonat bo'yicha foiz daromadlari va hisob-kitoblar tartibi to'g'risida, shuningdek huquqlaringiz va majburiyatlariningiz, Sizga tushunarsiz bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan bankdan to'liq va bat afsil ma'lumot olishga haqlisiz.

Agar Sizda shikoyatlar mavjud bo'lsa, u holda Siz murojaatingizni (telefon raqami ko'rsatiladi) raqamli telefonga yoki (bankning pochta manzili ko'rsatiladi) manzilga yoki (bankning elektron pochtasi manzili ko'rsatiladi) elektron manzilga jo'natishingiz mumkin.

**AXBOROT VARAQASINING TO'G'RILIGI VA HAQIQIYЛИGI
TASDIQLANADI.**

(bank mutaxassisining F.I.Sh. va lavozimi)

*(to'ldirilgan
sana)*

* Mazkur varaqaga omonat shartnomasi yoki omonat olish uchun buyurtmanoma o'rmini bosmaydi, aksincha turli banklarning omonat shartlarini taqqoslashga va kerakli tanlovnini amalgaloshishga yordam beradi.

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 24-avgustdagagi 20/7-sonli qaroriga (ro'yxat raqami 3030-7, 23.09.2021-y.) asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son — 2021-yil 24-dekabrdan kuchga kiradi)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2018-y., 10/18/3030/1440-son; 15.07.2019-y., 10/19/3030-1/3428-son; 25.09.2019-y., 10/19/3030-2/3804-son; 22.11.2019-y., 10/19/3030-3/4059-son; 21.02.2020-y., 10/20/3030-4/0204; 07.09.2020-y., 07/20/3030-5/1266-son; 14.01.2021-y., 10/21/3030-6/0039-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son, 23.09.2021-y., 10/21/3030-7/0907-son; 27.01.2023-y., 10/23/3030-8/0057-son)